TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

Contents

A. A. Djumanqulov *A. A. Beknazarov*	Psychological and Methodological Principles of Effective Lesson Time Management by Teachers	6
B. A. Khasanova *R. Abdullaev*	Digital Transformation in Central Asia: An Assessment Based on the Case of the Kyrgyz Republic	8
Yu. Akhmedov	The Strategic Importance of Crisis Communication in Ensuring National Stability in Polyethnic Societies	13
O. F. Egamberdiev	The Role, Determinants, and Effectiveness of Marketing Strategies in the Sustainable Development of the Transport System: Evidence from the Khorezm Region	17
R. Sh. Ibrahimova	Development History of Parasitology in Azerbaijan	20
B. O. Turaev	Ali Qushchi: The Scholar Who Introduced the Achievements of Ulugh Beg's Academy to the World	22
H. Hamidov	The History of Artists during the Reign of Amir Temur and the Timurid Period	26
S. Dj. Saidova	National Costume as a Historical and Spiritual Phenomenon	30
K. M. Yuldoshev	Innovation in Education	33
A. S. Kaliev *N. B. Bazarbaev*	Political Development and the Transformation of Civil Identity in Uzbekistan: The 690th Anniversary of Amir Temur and the Politics of	36
K. M. Yuldoshev *Z. Murodova*	Rabat-i Malik Caravanserai: A Key Waystation on the Great Silk Road	39
D. S. Saparboeva	Features of the Development of Logical Thinking in Primary School Mathematics Lessons	42
Sh. O. Sayfullaeva	Developing Reading Skills through Authentic Texts in Teaching Russian as a Foreign Language	44
N. Kh. Kholyigitova	The Role of Personal Values–Oriented Career Planning in Higher Education for Societal Development	46
M. N. Inatov	The Application of Sociological and Historical Analysis Methods in Letter Analysis	48
M. G. Nazarova	Socio-Psychological and Educational Strategic Directions for Preparing Future Engineers for Professional Activity in the Context of Societal Development	51
I. H. Jabrayilov	Common Turkish History: Research and Teaching Issues	54
O. V. Kon	Preparing the Next Generation of Social Educators in Higher Education: A Competency Model in the Context of Global Societal Challenges	56
D. A. Egamberdieva	The Semantic Characteristics of Nature Symbols in Uzbek and English Fairy Tales	60
Q. H. Inoyatov	The Scientific Legacy of Our Great Ancestors as a Source of Education and Moral Values	64
A. J. Toshboboev	The Integration of Social Sciences and the Education System for Sustainable Societal Development: An Analysis of Historical and Contemporary Approaches	66
G. B. Ernazarov	The Role of the Service Sector in the National Economy: Significance, Economic Analysis, and Strategies for Improvement	69
Ə. M. Zeynalov	Azerbaijan in French Literature	72
K. M. Gulomova	The Role of Modern Pedagogical Technologies in Enhancing Teachers' Professional Competence	76
S. Ibrohimov	Culture and Historical Heritage as Economic Resources: Innovative Management and Strategies for Sustainable Growth	79
J. O. Kucharov	Enhancing Workforce Potential in Small Business Enterprises in Uzbekistan	82

The Role of Modern Pedagogical Technologies in Enhancing Teachers' Professional Competence

Gulomova Komila Maxmatjanovna (PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor)[1]
g.komila05@gmail.com | ORCID: 0009-0005-5878-8149
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article analyzes the role and importance of modern pedagogical technologies in the development of teachers' professional competence. It highlights the potential of pedagogical technologies in forming teachers' methodological, communicative, and information and communication competencies. The study also examines key factors for improving the quality of education and ensuring teachers' professional development based on the competence-based approach.
Keywords: professional competence, pedagogical technologies, competence-based approach, pedagogical skills, innovative activity, interactive methods, quality of education, digital learning, professional development, information and communication technologies

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati

Gulomova Komila Maxmatjanovna (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)[1]
g.komila05@gmail.com | ORCID: 0009-0005-5878-8149
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqolada pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogik texnologiyalarning o'qituvchining metodik, kommunikativ va axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashning muhim omillari ochib berilgan.
Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik mahorat, innovatsion faoliyat, interfaol metodlar, ta'lim sifati, raqamli ta'lim.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi, fan va texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi ta'lim mazmuni, shakli va metodlarini muntazam takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri pedagogning kasbiy kompetentligidir. Chunki zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltiruvchi va shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashuvchi muhim subyekt hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlarining integrallashgan majmuasini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya o'qituvchining pedagogik vaziyatlarni to'g'ri tahlil qilishi, zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llashi, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishi hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil eta olishida namoyon bo'ladi. Shu sababli pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda[1].

So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim modeli dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida keng joriy etilib, pedagog faoliyatiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Endilikda pedagogdan faqat fan mazmunini mukammal bilish emas, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, o'quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo'naltirish, ta'lim jarayonini loyihalash, natijalarni tahlil qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilish kabi kompetensiyalarga ega bo'lish talab etilmoqda.

Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini ilmiy asosda loyihalash, aniq maqsadlarga yo'naltirish, o'qitish va baholashning samarali usullarini qo'llash hamda kutilgan natijalarga erishishni ta'minlaydigan tizimli yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, raqamli ta'lim vositalari, masofaviy o'qitish texnologiyalari va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim resurslari pedagogning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vositalar hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini o'rganish, ularning ta'lim sifati va pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi pedagog kasbiy kompetentligining mazmun-mohiyatini yoritish, uni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ta'lim amaliyotida ulardan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga joriy etish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida

muhim o‘rin egallaydi. Ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatlari pedagogika, psixologiya hamda ta’lim menejmenti yo‘nalishlarida turli nuqtai nazarlardan tadqiq etilgan.

O‘zbekistonlik pedagog olim N.A. Muslimov kasbiy kompetentlikni pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, pedagogning kasbiy kompetentligi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy faoliyat davomida shakllanadigan tajriba, refleksiya va innovatsion yondashuvlar bilan ham belgilanadi. Ushbu yondashuv kompetentlikning dinamik xarakterga ega ekanligini va uning uzluksiz rivojlanib borishini ko‘rsatadi[1].

Pedagogik texnologiyalar nazariyasining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan o‘zbek olimi B.L. Farberman pedagogik texnologiyani oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, ta’lim samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahorati bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalarni tanlash va qo‘llash qobiliyatiga ham bog‘liqdir[2]. Bu esa pedagog kompetentligining texnologik komponentini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Professor N.N. Azizxo‘jayeva pedagogning kasbiy kompetentligini ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholash bilan bog‘liq kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi muhim sifatlar majmui sifatida tavsiflaydi. Olimaning fikricha, zamonaviy o‘qituvchi pedagogik, psixologik, metodik va kommunikativ kompetensiyalarni uyg‘un ravishda rivojlantirishi lozim[3].

Rus pedagogika maktabining taniqli vakili V.A. Slastenin kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikning amaliy ifodasi deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, pedagogning haqiqiy kasbiy kompetentligi bilimlarni amaliyotda qo‘llash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarga ijodiy yechim topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘qituvchini faol va ijodkor subyekt sifatida shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi[4].

Pedagogik texnologiyalar rivojiga katta hissa qo‘shgan amerikalik olim Benjamin Blum o‘quv maqsadlarini tizimlashtirish va ta’lim natijalarini baholash masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning taksonomiyasi o‘quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Bloomning ilmiy qarashlari pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish va ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltirilgan holda tashkil etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Amerikalik pedagog va psixolog John Dewey ta’limning amaliy faoliyat bilan bog‘liqligini asoslab bergan. Uning fikricha, inson bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, loyihaviy faoliyat va hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi[6].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarida pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharti sifatida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash masalasi alohida e’tirof etiladi. Barcha yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, kompetent pedagog – bu nafaqat chuqur bilimga ega mutaxassis, balki innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta oladigan, o‘z ustida muntazam ishlaydigan va ta’lim jarayonini samarali boshqara oladigan shaxsdir. Shunday ekan, pedagogik texnologiyalar pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omili va zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Muhokama. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagoglarning kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirib borishni talab etmoqda. Chunki ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining bilim darajasi, pedagogik mahorati va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga bog‘liq. Shuning uchun ham pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi nafaqat alohida pedagogning, balki butun ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish usullari bugungi axborotlashgan jamiyat talablarini to‘liq qondira olmaydi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy faoliyatga tayyorligini shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarur. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha metodi, raqamli ta’lim vositalari va o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi[5].

Pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchidan yangi bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z ustida muntazam ishlash va kasbiy rivojlanishga intilishni talab qiladi. Natijada pedagogning metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va refleksiv kompetensiyalari rivojlanadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchiga ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va natijalarni baholashda qulay imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quv materiallarini vizuallashtirish, tezkor aloqa o‘rnatish va individual yondashuvni ta’minlashga yordam beradi. Bu esa pedagogning kasbiy faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tahlillar va natijalar. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi ta’lim jarayonida o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyati nafaqat fan bo‘yicha bilimlari, balki ta’limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil eta olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Zamonaviy ta’lim muhiti pedagogdan o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda darslarni interfaol va samarali tashkil etishni talab etmoqda.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, pedagogik texnologiyalarni muntazam qo‘llaydigan o‘qituvchilarda kasbiy faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlarni tez va samarali hal qilish ko‘nikmalari hamda ta’lim jarayonini boshqarish kompetensiyalari yuqori darajada shakllanadi. Xususan, loyiha metodi, muammoli ta’lim, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Keys-stadi”, “Debat” kabi interfaol texnologiyalar o‘qituvchining metodik mahoratini rivojlantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlash darajasini ham oshiradi. Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi pedagog faoliyatiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda[7]. Elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, virtual ta’lim muhiti va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish pedagogning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada o‘qituvchi ta’lim resurslaridan samarali foydalanish, darslarni vizuallashtirish va o‘quvchilar bilan tezkor muloqotni yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar asosida pedagogning kasbiy kompetentligi rivojlanishida bir nechta muhim omillar mavjudligi aniqlandi. Bular: uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion faoliyatga tayyorlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko‘nikmasi, refleksiv faoliyat va ijodiy yondashuvdir. Mazkur omillarning uyg‘un rivojlanishi pedagogning kasbiy salohiyatini oshiradi hamda ta’lim sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan ilmiy manbalar va pedagogik tajribalar natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa, o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlikda

o‘qitish, differensial yondashuv va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda pedagogning metodik, kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlanishi kuzatiladi[7].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh va zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va o‘quvchilarning pedagogik salohiyatini rivojlantirish ko‘p jihatdan pedagogning kasbiy mahorati hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash darajasiga bog‘liq.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar pedagog faoliyatining samaradorligini oshirish, dars jarayonini maqsadli tashkil etish va o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, raqamli ta’lim vositalari va innovatsion yondashuvlar o‘qituvchining metodik, kommunikativ hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogning kasbiy kompetentligi doimiy ravishda yangilanib boradigan jarayon bo‘lib, u uzluksiz ta’lim, malaka oshirish, mustaqil izlanish va innovatsion faoliyat orqali takomillashadi. Zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga va hayotiy kompetensiyalarni egallashga yo‘naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

References

1. Муслимов Н.А. Касбий компетентлик ва педагогик фаолият самарадорлиги. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – 248 б.
2. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар. – Тошкент: Fan, 2000. – 127 б.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 159 б.
4. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: Академия, 2013. – 608 с.
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 312 с.
6. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy in Educational Practice // Journal of Educational Research and Innovation. – 2021. – Vol. 15. – No. 3. – P. 45–58.
7. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) as a Framework for Teacher Professional Competence Development // Journal of Digital Learning in Teacher Education. – 2022. – Vol. 38. – No. 4. – P. 215–228.